

**“NKMK” AJ tomonidan 2025-yil davomida faoliyat yo‘nalishlariga
oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT**

“NKMK” AJ (keyingi o‘rinlarda – “NKMK” AJ) tomonidan **2025-yil davomida** o‘z faoliyati yo‘nalishlarida quyidagi ishlar amalga oshirildi. Xususan,

1. “NKMK” AJ o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, Jamiyat ustavi va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirib kelmoqda.

Jamiyatning boshqaruv organi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi hisoblanadi.

2025-yil davomida Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlari 6 marotaba (2024-yilga nisbatan 3 taga ko‘p) o‘tkazilib, **16 ta masalalar** (4 ta hisobotlarni ko‘rib chiqish, 2 ta korporativ boshqaruvga oid ichki hujjatlarni tasdiqlash, 9 ta tashkiliy va 1 ta boshqa) yuzasidan **qarorlar** qabul qilingan.

Kuzatuv kengashi yig‘ilishlari 2025-yilda **25 marotaba** (2024-yilga nisbatan 12 taga ko‘p) o‘tkazilib, **69 ta** (2024-yilga nisbatan 24 taga ko‘p) **masalalar** (11 ta moliyaviy, 16 ta hisobotlarni ma‘qullash, 4 ta korporativ boshqaruvga oid ichki hujjatlarni tasdiqlash, 32 ta tashkiliy, 5 ta moliyaviy mablag‘larni jalb qilish, 1 ta boshqa) yuzasidan **qarorlar** qabul qilingan. Shuningdek, Kuzatuv kengashi huzuridagi **qo‘mitalarning yig‘ilishlari** 2025-yilda **23 marotaba** (2024-yilga nisbatan 16 taga ko‘p) o‘tkazilib, **53 ta** (2024-yilga nisbatan 40 taga ko‘p) **masalalar** yuzasidan Kuzatuv kengashiga takliflar kiritilgan.

Boshqaruv yig‘ilishlari 2025-yilda **120 marotaba** (2024-yilga nisbatan 299 taga ko‘p) o‘tkazilib, **240 ta masalalar** (121 ta moliyaviy, 79 ta tashkiliy, 40 ta boshqa) yuzasidan **qarorlar** qabul qilingan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–269-son Farmonining 5-bandida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari hamda Hukumat vakolatlariga oid boshqa dolzarb masalalarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish tartibi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va masalalar Hukumatga bevosita vazirlar va boshqa mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari tomonidan belgilangan tartibda kiritilish belgilangan.

Shuningdek, davlat ishtirokidagi tashkilotlar va xo'jalik birlashmalari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va boshqa masalalar tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshirayotgan vazir yoki boshqa mustaqil ijro etuvchi hokimiyat organi rahbari orqali kiritilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son Farmoni bilan vazirliklar va alohida maqomga ega mustaqil respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, unda "NKMK" AJ ko'rsatib o'tilmagan.

Yuqoridagilarga asosan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan vazirlik va idoralar, davlat ishtirokidagi tashkilotlar va xo'jalik birlashmalari rahbarlariga 2023-yil 16-fevralda 11/42-1/280-sonli xat bilan mazkur farmonlar talablari asosida kiritilmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari huquqiy ekspertizadan o'tkazilmasligi ma'lum qilingan.

Shunga ko'ra, "NKMK" AJ tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'ridan-to'g'ri idoralararo kelishuvga va elektron tizimlarga (portal, platformalar) muhokamaga qo'yilmasligi ma'lum qilinadi.

3. "NKMK" AJda 2025-yil yanvar-dekabr oylari davomida ijro.gov.uz tizimi orqali jami **240 ta** (shundan asosiy ijrochi sifatida - **96 ta**, hamijrochi sifatida - **144 ta**) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari nazoratga olingan bo'lib, **topshiriqlar ijrosi to'liq ta'minlandi va nazoratdan yechildi.**

Kombinat ichki hujjat aylanish tizimi edo.ijro.uz (mf.ijro.uz) da 2025-yil davomida **3021 ta** yuqori turuvchi organlar hujjatlari (**5021 ta** topshiriq) ro'yxatga olingan. Shundan, **4 715 ta** topshiriq bajarildi va **306 ta** topshiriq ish jarayonida(muddati mavjud).



4. “NKMK” AJ tomonidan 2025-yil yakuni bilan quyidagi natijalarga erishildi. Xususan,

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **135,6 trln. so‘m**ni tashkil qilib, o‘sinh sur‘ati **102,1 foiz**ga ta‘minlandi.

Investitsiya dasturi doirasida **560,8 mln. dollar** mablag‘lar o‘zlashtirildi.

2025-yil yakuni bilan umumiy qiymati **1004 mln. dollar** bo‘lgan **4 ta investitsion loyihalar** ishga tushirildi.

Jumladan,

“Muruntov” konini o‘zlashtirish (V navbati) 1-bosqich;

7-GMZ qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish (Qayta ishlash majmuasi, 1-texnologik zanjir);

“Zarmitan” konining quyi gorizontlarini o‘zlashtirish (0.00m. gor.gacha) (“Skipli” va “Bosh” vertikal shaxta stvollari);

Kokpatas va Daugiztau oltin konlarida ma‘dan qazib olish. III navbati (Qayta ishlash majmuasi) loyihalari foydalanishga topshirildi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish xorijiy banklarning kredit mablag‘lari hisobidan amalga oshirildi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida kombinat quvvatlarida **2 628 ta** (o‘tgan yilga nisbatan **3 barobar** ko‘p) yangi ish o‘rinlari tashkil qilindi.

Importni qisqartirish maqsadida mahalliyashtirish loyihalari bo‘yicha **1,4 trln. so‘m**lik mahsulot ishlab chiqarildi (o‘sinh sur‘ati **153,6 foiz**).

Sanoat kooperatsiya doirasida **7,3 trln. so‘m** miqdordagi mahsulotlar xarid qilindi (o‘sinh sur‘ati **117,0 foiz**).

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi **4,2 trln. so‘m (12,9 foiz)**ga kamaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-maydagi tegishli qaroriga muvofiq “NKMK” AJ iqtisodiy va operatsion samaradorligi yuqori va istiqbolli investitsiya dasturlarini davlat kafolati va ko‘magisiz mustaqil moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan zamonaviy korxonaga aylantirish, xalqaro kredit reytingini qo‘lga kiritish, xalqaro obligatsiyalarni muomalaga chiqarish kabi bir qator muhim vazifalar belgilangan.

London xalqaro fond birjasida umumiy qiymati **500 mln AQSh dollariga teng** besh yillik xalqaro korporativ obligatsiyalar 6,75 foiz daromadli shartlarda muomalaga chiqarildi va joylashtirildi.

Mazkur jarayon davomida dunyoning yetakchi banklari, jumladan “Citi”, “JP Morgan”, “Societe Generale” va “MUFG”dan iborat anderrayterlar konsorsiumi navbatdagi obligatsiyalar chiqarilishiga yuqori investor qiziqishini qayd etdi. Shuningdek, xalqaro investorlardan tushgan buyurtmalar hajmi 2,3 mlrd AQSh dollariga yetib, bu joylashtirish hajmidan **4,6 baravardan** ortiq bo’ldi.

“**S&P Global Ratings**” va “**Fitch Ratings**” xalqaro kredit agentliklari tomonidan Jamiyatning uzoq muddatli kredit reytinglari “BB-” darajadan “Barqaror” prognozi bilan “BB” darajaga oshirishga erishildi.



5. 2025-yil davomida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va bo’linmalarida jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarini ko’rib chiqish natijalarining tahlili yo’nalishida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tizimida jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarni ko’rib chiqish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari tahlil etildi.

2025-yil davomida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati rahbariyati nomiga jami – **3 108 ta** murojaat yozma, og‘zaki, elektron va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi hamda Bosh vazirining tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonasi orqali murojaatlar kelib tushgan.

“NKMK” AJ rahbariyatining jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish hamda bo‘linmalarda sayyor qabullarni tashkil qilish jadvali tasdiqlangan bo‘lib, **2025-yil davomida jami 110 nafar fuqarolar** Markaziy kon boshqarmasi, Shimoliy kon boshqarmasi, Janubiy kon boshqarmasi hamda Zarafshon qurilish boshqarmalarida o‘tkazilgan sayyor qabullarda qabul qilindi. Mazkur murojaatlar bo‘yicha joyida huquqiy tushunchalar berildi.

Quyidagi shakllarda murojaatlar qabul qilindi:

- оғзакӣ муурожаатлар – 477 (15.1 %);
- ёзма муурожаатлар - 810 та (27 %);
- электрон муурожаатлар – 1821 тани (57.9%) tashkil etgan.

Kelib tushgan yozma murojaatlarning tahlili:

- mehnat va bandlik masalalari – **439 ta** (48.9 %);
- uy-joy masalalariga oid – **15 ta** (1.7 %);
- pensiya, nafaqa pullari tayinlash – **6 ta** (4 %);
- ta’lim masalalariga oid – **58 ta** (7.3 %);
- ijtimoiy himoya bilan bog‘liq masalalar – **115 ta** (15.5 %);
- tibbiyot bilan bog‘liq masalalar – **36 ta** (4.6 %);
- boshqa masalalar – **141 tani** (18 %) tashkil etadi.


Yozma murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra, murojaatlarning **198 tasi (19,6%)** ijobiy hal qilingan, **587 tasi (80.4%)** tushuntirish berilgan, **7 tasi (%)** tugatilgan, **1 tasi** ko‘rmasdan qoldirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan **1 773 ta** murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra, **750 tasi (42,3%)** ijobiy hal qilingan, **679 tasi (38,3%)** huquqiy tushuntirish berish orqali hal qilingan, murojaatlarning qolganlaridan **43 tasi (2,4%)** joyida tushuntirish berilgan, **273 tasi (15,6%)** tugatilgan, **1 tasi (0,1%)** tugatilgan, **25 tasi (1,4%)** nazoratda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan **1 773 ta** murojaatlar masalalar kesimida tahlil qilinganda:

- mehnat va bandlik masalalari – **1 328 ta** (77.2 %);
- uy-joy masalalariga oid – **10 ta** (0.5 %);
- nafaqa va ijtimoiy masalalar – **7 ta** (0.19 %);
- ta’lim masalalariga oid – **9 ta** (0.2 %);
- ijtimoiy himoya bilan bog‘liq masalalar – **23 ta** (1.0 %);
- tibbiyot bilan bog‘liq masalalar – **6 ta** (0.11 %);

- kommunal xo'jaligi bilan bog'liq masalalar – **2 ta** (0,1%)
- boshqa masalalar – **388 tasi** (20.8 %) tashkil etadi.



6. "NKMK" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida 2025-yil davomida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan,

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida.

2025-yil 17-yanvarda **24 banddan** iborat "NKMK" AJda 2025-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturi va 2024-yil 25-dekabrda Jamiyat tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha **9 ta banddan** iborat yo'l xaritasi tasdiqlandi va ijrosi to'liq ta'minlandi.

Xizmat tomonidan jami **8 074 ta** (7 084 ta buyruq va 990 ta farmoyish) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **168 ta** ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

Jamiyatning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o'tkazildi. Baholash natijalariga ko'ra, **1478 ta** funksiyalar baholanib, shundan **1 ta** "yuqori", **19 ta** "o'rta" va **1 458 ta "past"** darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2025-yil 23-yanvarda **14 ta** baddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Bugungi kunda dasturning ijrosi to'liq ta'minlandi.

2025-yil mobaynida Jamiyat ishchi-xodimlari bilan **146 marotaba** (92 ta seminar, 12 ta davra suhbat, 3 marotaba televideniya, 2 marotaba radioda, 2 marotaba gazetada, 3 marotaba brifing va 32 marotaba ijtimoiy tarmoqlar orqali) huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlarida **10 760 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.

Xizmat xodimlari tomonidan jami **26 marotaba** shundan, **18 marotaba** onlayn va **8 marotaba** an'anaviy malaka oshirish kurslarida ishtirok etildi.

"NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma talablari asosida tanlov asosida ishga qabul qilinuvchi **4 610 nafar** nomzodlar ustidan tekshiruvlar amalga oshirildi. Nomzodlarni tekshirish natijasida **4 608 ta** ijobiy va **2 ta** salbiy xulosalar berildi.

Tanlov va mehnat qonunchiligi doirasida ishga qabul qilingan **4 608 nafar** xodimlarning mehnat shartnomalariga hamda "NKMK" AJ tomonidan tuzilgan **16 209 ta** xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilishi ta'minlandi.

2025-yil mobaynida jami **37 marotaba** o'rganish va xizmat tekshiruvlari o'tkazildi.

O'tkazilgan monitoringlar natijasida **95 ta manfaatlar to'qnashuvi holatlari** shundan, **22 ta** mavjud va **73 ta** ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlandi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha Odob-axloq komissiyalari tomonidan tegishli tartibda qarorlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, "NKMK" AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar bo'yicha nazorat qiluvchi Komissiya (*komissiya tarkibiga Komplaens xizmati kiritilgan*) tomonidan **16 ta** kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazoratdan o'tkazildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qaroriga ko'ra, 2025-yil yakuni bo'yicha **29 turdagi** ma'lumot va hisobotlar "**E-Anticor.uz**" elektron platformasiga kiritildi.



2025-yilda "NKMK" AJ da Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

INFOGRAFIKA

Ish reja

2025-yilda kombinatda korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida Komptayens xizmati tomonidan

24 ta banddan iborat chora-tadbirlar dasturi hamda

9 ta banddan iborat yo'l xaritasi to'liq bajarildi

Xujjatlar ekspertizasi

8 047 ta

ichki idoraviy hujjat loyihalari korruptsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi

Xavf-xatarni baholash

1 478 ta funksiya baholanib, shundan

1 ta "yuqori" **19 ta** "o'rta" va

1 458 ta

"past" darajadagi xavf-xatarni aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan

14 ta banddan iborat chora-tadbirlar dasturi ijrosi to'liq ta'minlandi

Targ'ibot ishlari

Kombinat ishchi-xodimlari bilan

146 marotaba

huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi

Targ'ibot tadbirlarida

10 760 nafar

ishchi-xodimlar ishtirok etdi

Ishga qabul qilish

Kombinatda ishga qabul qilingan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnomalar talablari asosida

4 610 nafar

nomzod ustidan tekshiruvlar amalga oshirildi

Manfaatlar to'qnashuvi

Kombinatda faoliyat yuritayotgan

5 499 nafar

boshqaruv xodimlaridan yillik ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya to'ldirildi

"Korruptsiyaga qarshi kurashish oyligi"

O'tgan yilning noyabr-dekabr oylarida kombinatda o'tkazilgan "Korruptsiyaga qarshi kurashish oyligi" davomida ishchi-xodimlar uchun

17 marotaba

targ'ibot tadbirlari o'tkazilib,

televideniya

3 ta

chiqish qilindi.

Tadbirlarda

1 455 nafar

ishchi-xodim ishtirok etdi.

2025-yil 20-noyabr kuni "NKMK" AJ tomonidan

"9-dekabr – Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni"ga

bag'ishlangan

"Ochiq eshiklar kuni"

tadbiri tashkil etildi

ISO 37001:2016 "Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi"

2025-yil iyul oyida "NKMK" AJ Markaziy apparati xalqaro sertifikatlovchi tashkilot tomonidan o'tkazilgan 1-bosqich kuzatuv auditidan o'tkazilib, yakuni bo'yicha

ISO 37001:2016

"Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi"


xalqaro standart talablariga muvofiqligi tasdiqlandi

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 154-son Farmoni ijrosi yuzasidan tegishli ma'lumotlarning belgilangan muddatlarda Kombinatning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi ta'minlanmoqda.

Jamiyatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portalda (*xodimlari uchun joriy etilgan*) joriy etilgan **"Ochiq ma'lumotlar"** bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, ochiq e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar joylashtirilmoqda hamda ushbu ma'lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olingan.

Shu bilan birga, Jamiyatning 2024-yil 9-fevraldagi tegishli buyrug'i bilan "NKMK" AJning faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar, ularni yangilab borish muddatlari va mas'ul ijrochilar ro'yxati hamda ma'lumotlarning namunaviy shakllari tasdiqlandi. Mazkur ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda rasmiy veb-saytga e'lon qilinishi nazorat olindi.

Ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar
va sohadagi samaradorlik



Bundan tashqari, "NKMK" AJ ochiqlikni ta'minlashda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda Jamiyatda amalga oshirilgan ishlar doimiy ravishda yoritib borilmoqda.

2025-yil davomida OAV vakillari va jurnalistlar uchun mas'ul rahbarlar ishtirokida **10 ta** brifing, **3 ta** matbuot anjumani, **1 ta** press tur va **1 ta** "Ochiq eshiklar" kuni tashkil etildi.



Bundan tashqari, 2025-yil davomida “NKMK” AJ faoliyatini yoritish yuzasidan tele-radio kanallar, ijtimoiy tarmoqlar, mesenjerlar va web-saytlarda chiqishlar qilindi. Jumladan,

markaziy va viloyat telekanallarda **100 marotaba** xabar, yangilik, videolavha, ko'rsatuv, maxsus reportaj namoyish etildi;

Respublika va viloyat gazetalarida **77 marotaba** xabar, yangilik, maqola, tahliliy maqola chop etildi;

Respublika va mahalliy OAVlarning veb-saytlarida **225 marotaba** xabar, yangilik, maqola, reportaj, fotoreportaj e'lon qilindi;

mahalliy radiokanallarda **32 marotaba** xabar, yangilik va suhbat e'lon qilindi;

“NKMK” AJning www.ngmk.uz rasmiy saytida o'zbek, rus, ingliz tillarda **305 marotaba** xabar, yangilik, maqola, tahliliy maqola va infografikalar joylashtirildi;

“NKMK” AJning Telegram, Facebook, Instagram, Youtube, Twitter va LinkedIn ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida **10 000 dan ortiq** post va videolavha joylashtirildi;

xorijiy ommaviy axborot vositalarida **40 marotaba** materiallar e'lon qilindi.



8. “NKMK” AJda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ish jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida 2025-yil davomida ijobiy natijalarga erishildi.

Xususan, **3-son gidrometallurgiya zavodining 7 va 8-son tegirmon bloklarida texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi (SCADA)**ni joriy etish orqali ma’dan maydalash jarayonining samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini berdi. Bu esa o’z navbatida tegirmonning ishlab chiqarish quvvatini 5% gacha oshirish va ma’dan maydalashdagi elektr energiya sarfini 3% gacha qisqartirishga olib keldi, texnologik uskunalarning xavfsiz, ishonchli va samarali ishlashini ta’minladi.

“7-GMZ qayta ishlash quvvatini kengaytirish” loyihasi doirasida tegirmon bloklari texnologik jarayonlarining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etish orqali ma’dan maydalash jarayonining samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini berdi. Bu esa o’z navbatida tegirmonning ishlab chiqarish quvvatini 5% gacha oshirish va ma’dan maydalashdagi elektr energiya sarfini 3% gacha qisqartirishga olib keldi, texnologik uskunalarning xavfsiz, ishonchli va samarali ishlashini ta’minladi.

Muruntov karerida davriy oqim texnologiyasining masofadan boshqaruvi va telemexanikasini ishlab chiqish va joriy etish natijasida tog’-kon kompleksining ishlab chiqarish quvvatini oshirish, ma’dan va tog’ jinslarini tashishdagi sarf-xarajatlarni qisqartirish, yoqilg’i resurslarini tejash, ishlab chiqarishga xom-ashyo yetkazib berilishi barqarorligini ta’minlash, sanoat xavfsizligi darajasini oshirish va atrof-muhitga ekologik ta’sirni kamaytirish imkonini berdi.

IIoT (Industrial Internet of Things) texnologiyalaridan foydalangan holda ekskavatorlar va burg’ulash stanoklarining ishlashini masofadan onlayn monitoring qilish tizimini joriy etish natijasida tog’-kon texnikalarining texnik holatini nazorat qilishning tezkorligini va uzluksizligini ta’minlash, ishlab chiqarishdagi to’xtalib qolishlarni kamaytirish, texnikalardan foydalanish koeffitsientini oshirish va o’z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini berdi.

Marksheyderlik ishlarini amalga oshirishda topografik syomkalar uchun dronlardan foydalanish orqali yuqori aniqlikdagi 3D model va relef ma’lumotlarini tez olish, maydonni o’lchash an’anaviy usullarga nisbatan bir necha baravar tez amalga oshirilishi, xatarli va qiyin yetishiladigan hududlarda mutaxassislarning shaxsiy xavfsizligini ta’minlanishi, mehnat sarfi, uskuna va transport xarajatlari kamayishi, yuqori sifatli fotogrammetrik va lidaral ma’lumotlar asosida to’liq va ishonchli tahlillarini olish, ma’lumotlarni qayta ishlashni tezlashishi va xatolar minimallashtirishi imkonini berdi.

Sun'iy intellektdan foydalangan holda "Videotahlil asosida shaxsiy himoya vositalarini boshqarish" axborot tizimini ishlab chiqilishi xavfsizlik texnikasi va sanoat xavfsizligi talablarini buzish holatlarini aniqlash uchun avtomatik video kuzatuv jarayonini 24 soatlik nazoratni ta'minladi. Bu noqonuniy holatlarni har qanday vaqtda aniqlash imkonini berdi, shuningdek, avariya va jarohat xavfini kamaytirdi. Tizim buzilishlar bo'yicha statistikani yuritish imkonini ham berdi, shu orqali taqqoslash tahlilini (dinamika, sabablar, bartaraf etish choralari) olib borish mumkin. Bu ma'lum zonalar (uchastkalarda) tez-tez yuz berib turgan muammolarni aniqlashga va xodimlarni o'qitish, infratuzilma bilan bog'liq choralarni to'g'rilashga yordam beradi, natijada uzoq muddatda Jamiyatda umumiy xavfsizlikni oshirish imkonini berdi.

Sun'iy intellekt asosida konlarda og'ir yuk tashuvchi transport vositalari haydovchilarini nazorat qiluvchi videoanalitik (DMS) tizimini joriy qilish natijasida haydovchilarning intizomi sezilarli darajada yaxshilanib, yo'l-transport hodisalari soni qisqardi. 2024-yilda qayd etilgan qoidabuzarlik holatlari soni 136 tani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 88 tagacha kamaygan. Bu esa baxtsiz hodisalar va noxush holatlar, shuningdek transport vositalarini boshqarish qoidalarini buzish holatlari o'tgan yilga nisbatan ancha qisqarganidan dalolat beradi.



2025-yilda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish yakunlari to'g'risida

INFOGRAFIKA

Raqamli rivojlanish darajasi bo'yicha reyting baholash natijalariga ko'ra, "NKMK" AJ **98,7 ball** ko'rsatkich bilan **33 ta** xo'jalik boshqaruvi organi o'rtasida **1-o'rinni** egalladi

Asosiy ko'rsatkichlar

 **324 TB (Terabayt)**
server resurslari (serverlar, virtual mashinalar, ma'lumotlarni saqlash tizimlari, xazina nusxalash tizimlari, AI-serverlar)

 **90 km**
optik tolali aloqa liniyalari modernizatsiya qilindi va foydalanishga topshirildi

 **130 000 ta**
foydalanuvchi murojaatlari ko'rib chiqildi
(masofaviy va joyiga borib texnik xizmat ko'rsatish)

 **3 100 ta**
telefon aloqa abonentlari (o'rnatish, tiklash va ekspluatatsiya)

Amalga oshirilgan raqamli loyihalar



GMZ-7 va GMZ-3 tegirmon bloklarini raqamli boshqarish
Boshqarishni avtomatlashtirish, ishlab chiqarish quvvatini **5%** gacha oshirish, energiya sarfini **3%** gacha kamaytirish, maydalash samaradorligi va mahsulot sifatini oshirish.



"Muruntov" konida davriy oqim texnologiyasi telemexanikasi
Transport xarajatlarini kamaytirish, yoqilg'ini tejash va sanoat xavfsizligini oshirish. Asbob-uskunalar to'xtab qolishini **8%** ga, ularga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlarini **5%** ga kamaytirish.



Ekskavatorlar va burg'ilash uskunalarini onlayn monitoring qilish
Texnik holatni real vaqt rejimida nazorat qilish, to'xtab qolishlarni qisqartirish va asbob-uskunalaridan foydalanish koeffitsiyentini **0,81 dan 0,83 gacha oshirish**.



Xavfli zonalar va shaxsiy himoya vositalarini nazorat qiluvchi **AI-videoanalitika**
Mehnat muhofazasi bo'yicha **24/7** uzluksiz nazorat, qoidabuzarliklarni aniqlash, avariya va jarohatlanishlarni kamaytirish.



AI texnologiyalari asosidagi kon transporti haydovchilari uchun **DMS-tizim**
Haydovchilarning xatti-harakatlarini nazorat qilish, intizomni oshirish va yo'l harakati qoidalarini buzilishini **35% ga kamaytirish**.

9. “НКМК” AJda xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, bilim va malakasi shu jumladan, professional ko‘nikmalarini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.


“НКМК” AJda ishga qabul qilish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 26-iyundagi 52-2023/B-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi namunaviy nizom” va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan foydalaniladi.

Mazkur hujjatlar asosida “НКМК” AJning kadrlar siyosati, “НКМК” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalariga tanlov asosida kadrlarni ishga qabul to‘g‘risidagi Nizom”lar tasdiqlangan.

“НКМК” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalariga tanlov asosida kadrlarni ishga qabul qilish to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan, ishga qabul qilish tegishli sohadagi yuqori malakali mutaxassislar, ishchilar va Komlayens xizmati xodimlari vakillaridan tashkil topgan Tanlov komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur jarayonlar avtomatlashtirilgan bo‘lib tanlov uchun “mehnat.ngmk.uz” elektron platformalari yordamida bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumotlarni olish va nomzodlar tomonidan birlamchi hujjatlarni yuborish imkoniyati mavjud.

Respublika miqyosida va xorijdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish maqsadida, “hh.uz” sayti orqali bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumotlar berib boriladi.





КАДРЛАРНИ ИШГА ҚАБУЛ ҚИЛИШ

«НКМК» АЖНИНГ 2024 ЙИЛ 7 МАРТДАГИ 142-СОНИ БУЙРУҒИ БИЛАН ИШГА ҚАБУЛ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТЎЛИҚ ҚАЙТА КЎРИБ ЧИҚИЛДИ, РАҚАМЛАШТИРИШ КЕНГ ҚўЛЛАНГАН ХОЛДА ЯҒОНА ТИЗИМ ЖОРИЙ ЭТИЛДИ:

МАҚСАД ШАФОФ ВА РАҚОБАТБАРДОШ ТАНЛОВ КОРРУПЦИЯ ВА СУБЪЕКТИВЛИК ХАВФИНИ КАМАЙТИРИШ ЭНГ МУНОСИБ НОМЗОДЛАР	ЖАРАЁН ВАКАНСИЯЛАРНИ ОЧИҚ ЭЪЛОН ҚИЛИШ ОЧИҚ РАҚОБАТ – MEHNAT.NGMK.UZ СУНЪЙ ИНТЕЛЛЕКТ-РЕЙТИНГ ВА РЕЗЮМЕЛАРНИ САРАЛАШ
НАЗОРАТ КОМИССИЯ ≥ 5 КОМПЛАЕНС ИШТИРОКИ, ВИДЕО ЁЗУВ ВА ОНЛАЙН КУЗАТУВ ШАРҲЛАР ВА АПЕЛЛЯЦИЯ	НАТИЖА ЭНГ ЯХШИ НОМЗОДНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ АСОСЛАНГАН ҚАРОРЛАР ЯҒОНА ҚОЙДАЛАР КАДРЛАР ЗАХИРАСИ



«НКМК» АЖга ishga qabul qilish
TARTIBI 4 ta bosqich

1-BOSQICH: TANLOV OTCIDIRISH TOSHIKIDAN BILAN QILINADI.
2-BOSQICH: TANLOV OTCIDIRISH TOSHIKIDAN BILAN QILINADI.
3-BOSQICH: TANLOV OTCIDIRISH TOSHIKIDAN BILAN QILINADI.
4-BOSQICH: TANLOV OTCIDIRISH TOSHIKIDAN BILAN QILINADI.

NO BIZ KORRUPTSIYAGA QARSHIMIZ!

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите в раздел "Параметры".

НКМКДА КАДРЛАРНИ РАҚОБАТ АСОСИДА ТАНЛАШ — ИНСОН ОМИЛИНИ ИСТИСНО ЭТАДИГАН ВА НАЗОРАТ ҚИЛИНАДИГАН ТИЗИМ

2025-yil davomida Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalarida bo'sh ish o'rinlariga **131 ta e'lon** berilgan ochiq tanlov uchun **80 mingdan** ortiq fuqarodan hujjatlar kelib tushgan. Tanlov natijalariga ko'ra **3197 nafar** fuqaro ishga qabul qilingan.

Shuningdek, 2025-yil uchun tasdiqlangan rejaga muvofiq kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ishlar tashkil etildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezident Farmonlarini va Hukumat qarorlarini ijrosi hamda Jamiyat bo'linmalarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish bo'limi tomonidan 2025-yilda quyidagi maqsadli ishlar amalga oshirildi.

Jamiyat ehtiyojlari uchun kadrlar tayyorlashning amaldagi tizimiga muvofiq, oliy ma'lumotli mutaxassislar va yuqori malakali ishchilar, shuningdek, professional o'rta bo'g'in ta'limiga ega mutaxassislar tayyorlanadi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash asosan respublika oliy ta'lim muassasalarida, ayrim mutaxassisliklarda esa xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. 2026-yil 1-yanvar holatida jamiyat hisobidan jami **262 nafar** talabalar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida kunduzgi bo'limda tahsil olayotgan talabalar **11 nafarni**, Respublikamizning oliy o'quv yurtlarining sirtqi bo'limlarida **251 nafar** xodimlarimiz tahsil oladi.

Navoiy davlat konchilik texnologiyalar universiteti (NDKTU)da kunduzgi bo'lim bakalavriatda o'qiyotgan talabalar yanada samarali va sifatli tayyorgarligini ta'minlash uchun universitet talabalari, "NKMK" AJ kadrlar boshqarmasi va kombinatdagi ishlab chiqarish bo'linmalari mutaxassislari bilan birgalikda o'qitishni o'z ichiga olgan **dual tizimi** buyicha treninglar tashkil etildi. Bu esa kombinat bo'linmalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga olib keladi.

Shu bilan birga, kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha jamiyat bo'linmalari tizimida **3 ta** O'quv markazi, **2 ta** O'quv-kurs kombinati mavjud bo'lib, hisobot davrida **17 686 nafar** ishchi o'qitildi, shundan **5 111 nafari** qayta tayyorlandi va **9 804 nafari** malaka oshirdi.

Rahbar, mutaxassis va xodimlarning malakasini oshirish kombinatda, respublika institutlari va malaka oshirish markazlarida amalga oshiriladi. Hisobot davrida **2 771 nafar** xodim o'z malakasini oshirdi.



10. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan yangi O'zbekistonda axborot va ochiqlik siyosati bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotgan va bu yo'nalishda qo'lga kiritilgan yutuqlar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanmoqda.

Bu borada qator huquqiy hujjatlar qabul qilinishi fuqarolarning axborotni erkin izlash va olishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish, ular faoliyatini baholashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-son Farmoni qabul qilinib, unda muhim vazifalar belgilandi.

Farmon ijrosini yuzasidan "NKMK" AJning 2023-yil 8-maydagi "Jamoatchilik kengashini tuzish to'g'risida"gi tegishli buyrug'i qabul qilinib, **15 nafar** a'zolaridan iborat kengash tarkibi, Nizomi, Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda Ochiqlikni ta'minlash bo'yicha ekspert guruhlari tarkibi tasdiqlandi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining yarmidan ko'pi nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati instituti vakillaridan iborat tarkibda tashkil etildi.

Jamoatchilik kengashining 2025-yilga mo'ljallangan 10-banddan iborat ish rejasi tasdiqlanib, ijrosi to'liq ta'minlandi. Shu bilan birga, 2025-yil davomida **2 marotaba** kengashning kengaytirilgan va **7 marotaba** kengash faoliyatining asosiy vazifalari yuzasidan yig'ilishlari o'tkazildi.


Hisobot davrida Markaziy apparatda, Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi, Markaziy laboratoriya, Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish boshqarmasi, Markaziy kon boshqarmasida yig'ilishlar tashkil etildi va jamoatchilik fikrini o'rganish maqsadida ishtirokchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi.

11. "NKMK" AJ tomonidan xorijiy mamlakatlarning konchilik va geologiya sohasidagi tashkilotlar bilan hamkorlik, tajriba almashish va ilg'or amaliyotni implementatsiya qilish yo'nalishida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, "NKMK" AJ tomonidan xalqaro tashkilot va kompaniya vakillari uchun **1006 ta** tashrif dasturi tayyorlandi. Shundan, **401 ta** tashrif dasturi xorijiy delegatsiyalar uchun, **605 tasi** milliy tashkilot va kompaniya vakillari uchun tayyorlangan.

2025-yil davomida "NKMK" AJ rahbar hodimlarini **11 ta** turli xalqaro va respublika miqyosidagi anjuman, forum, ko'rgazma va boshqa tadbirlarda qatnashishi ta'minlandi.

Ushbu tadbirlar dunyoning turli shaharlari, xususan, Toronto (Kanada), London (Buyuk Britaniya), Ar-Riyod (Saudiya Arabistoni), Ostona (Qozog'iston) shaharlarida bo'lib o'tdi.



12. "NKMK" AJ tomonidan 2025-yil yakuni bilan faoliyatdagi muhim ko'rsatkichlarning oldingi yillardagi ko'rsatkichlarga nisbatan tahlili quyidagicha hisoblanadi.

2025-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 135,7 trln. so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2024-yilda **94,0 trln.so'mni** tashkil qilgan.

Investitsiyalarni o'zlashtirish doirasida **560,8 mln. dollar** mablag'lar o'zlashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilda **789,6 mln. dollarni** tashkil qilgan.

Mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish **1 406,7 mlrd. so'mni** tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2024-yilda **915,8 mlrd.so'mni** tashkil qilgan.

Sanoat kooperatsiya doirasida 7,3 trln. so'm miqdordagi mahsulotlar xarid qilinib, bu ko'rsatkich 2024-yilda **6,2 trln.so'mni** tashkil qilgan.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida **2 628 ta** yangi ish o'rinlari tashkil qilinib, bu ko'rsatkich 2024-yilda **715 tani** tashkil qilgan.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi **4,2 trln. so'mga** kamaytirilib, bu ko'rsatkich 2024-yilda **3,7 trln.so'mni** tashkil qilgan.